



В Узбекистане
более 10 млн.
пользователей
facebook u
instagram
5-стр.



Youtube
ko'rinishini
o'zgartirdi
6-бет.



Ustozlik
bitmas-
tuganmas
baxt
8-бет.



ict.xabar.uz

Gazeta 1992-yil martdan chiqa boshlagan

Xabar

ERUR SEN SHOH, AGAR OGOHSEN SEN,
AGAR OGOHSEN SEN, SHOHSEN SEN.

39 (1565)-son
30-sentabr
2022

@xabaruzofficial
facebook.com/xabar.uz/
@xabaruzofficial

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI NASHRI

www.xabar.uz

TAQDIMOTDA EKO MAJLIS

Parkent tumanining Samsarak qishlog'idagi Villayat platformasi tomonidan tashkil etilgan Eko Majlis - umumiy rivojlanish maqsadiga ega loyihalar taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda AKT vaziri Sh.Shermatov ishtirok etdi.

Villayat - bu yashil va ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ekotizimni yaratuvchi, mamlakat aholisi uchun minimal ekologik xavflarga qarshi innovatsion ijodiy mahsulotlarni yaratuvchi IT platforma hisoblanadi.

Tadbir doirasida Villayat eko qishlog'i, Kollektiv startap akseleratori va Melnica venchur studiyasi loyihalari taqdimoti, shuningdek, iqlimshunolar O'zbekistondagi atrof-muhit holati to'g'risida ma'ruza qilindi.

Tadbirda ishlab chiqarishdan kelib chiqadigan atrof-muhitga yetkazilgan zararni kamaytirish, startaplar va venchur investorlar tomonidan ochiq muzokaralar bo'lib o'tdi.



RAQAMLI KO'PRIK

O'zbekiston delegatsiyasi forumda qator IT-yechimlari va startaplari bilan qatnashdi

Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Turkiya davlatlar tashkiloti doirasida 28-29-sentabr kunlari Digital Bridge an'anaviy xalqaro texnologiyalar forumi bo'lib o'tadi. Bu yilgi Forum "Central Eurasia as a new tech platform" - "Markaziy Yevroosiyo yangi texnologik platforma sifatida" mavzusiga qaratildi.

Forum doirasida Turkiya Davlatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarning texnoparklari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Memorandum imzolandi.

Memorandum imzolash marosimida Turkiya Davlatlar Tashkiloti Bosh kotibi B.Amriyev, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri

Sh.Shermatov, Qozog'iston Respublikasi Raqamli rivojlanish, innovatsiyalar va aerokosmik sanoat vaziri B.Musin, Turkiya Sanoat va texnologiyalar vaziri M.Varank, Turkiya Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Raqamli transformatsiya agentligi raisi Ali Taxa Kox, Ozarbayjon Respublikasi Raqamli rivojlanish va transport vaziri o'rinbosari F.Axmedov va Turkiya Davlatlar Tashkiloti Bosh kotibi o'rinbosari M.Azimov ishtirok etdi.

Memorandum Turkiya Davlatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarning texnoparklari rahbarlari tomonidan imzolandi. Ushbu bitim IT sohasi va innovatsion ekotizimni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan.

STRIMING SERVISLARINING KARAJATLARI (2022-YIL)

1. Amazon Prime Video - \$15,0 mlrd.
2. Netflix - \$13,6 mlrd.
3. Disney+ - \$9,5 mlrd.
4. Warner Bros. Discovery - \$6,5 mlrd.
5. Apple - \$6,0 mlrd.
6. Hulu - \$5,5 mlrd.
7. Paramount - \$4,0 mlrd.
8. Peacock - \$3,0 mlrd.
9. ESPN+ - \$1,5 mlrd.



Manba: Company Filings, Bloomberg Intelligence


Reyting

Elektron hukumat: O'zbekiston 18 pog'ona ko'tarildi

BMTning elektron hukumatlarning rivojlanish darajasi bo'yicha 2022 yilgi yangi reytingida (UN E-Government Survey) O'zbekiston 18 pog'ona yuqoriladi.

Mamlakatimiz 193 davlat orasida 69-o'rinni egalladi. Yangi reytingda O'zbekistonning qo'shnilari - Brunei (68) va Kolumbiya (70). 2020 yilning hisobotida O'zbekiston reytingning 87-pog'onasida edi.

Daniya elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha jahonda yetakchi mamlakat maqomini saqlab qoldi. Keyingi o'rinlarda - Finlyandiya va Janubiy Koreya.





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22 sentabr kuni Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidentini tavallud kuni bilan dildan qutlab, unga mustahkam sog'lik, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar, birodar turkman xalqiga esa farovonlik tiladi. O'zbekiston-Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23 sentabr kuni qurilish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi. Dastlab Olimpiya shaharchasi bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi. Taqdimotda shuningdek, "Yangi O'zbekiston" universiteti loyihasi hamda mahallalarda stadion, o'yin maydonchalari, kutubxona, kompyuterxona, oshxona, hammom va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlar loyihalari va Toshkentda tibbiyot klasteri tashkil etish loyihasi ko'zdan kechirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26 sentabr kuni elektrotexnika sanoatidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi. Unda "O'zeltexsanoat" uyushmasi raisi M.Yunusov tarmoqdagi galdagi ishlar, kelgusi yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar haqida axborot berdi. Bugungi kunda 1 milliard 200 million dollarlik 205 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Yangi mahsulotlar va ehtiyoj qismlarni mahalliy lashtirish, 2023 yilda eksport hajmini 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlab, tarmoqdagi ustuvor vazifalarni ko'rsatib o'tdi.


27 sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot o'tkazildi. Unda Toshkent hamda Samarqanddagi arxitektura institutlarining o'quv dasturlarini isloh qilib, ta'lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Prezident Administrasiyasi rahbari Sardor Umrzoqov 27 sentabr kuni videoselektor yig'ilishi o'tkazdi. Yig'ilishda qonun buzilish holatlari, joylardagi rahbar-kadrlarning mas'uliyatsizligi qattiq tanqid ostiga olindi. Ayrim rahbarlar ishdan bo'shatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 sentabr kuni transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda transport tizimidagi muammolarni hal etish va aniq natijalarga erishish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Nufuzli anjuman: Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi

28 sentabr – Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni munosabati bilan Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, shuningdek, UNESCO ishtirokida xalqaro konferentsiya tashkil etildi.



Anjumanda "Ma'lumotga ega va vakolatli fuqarolar uchun raqamli boshqaruv va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish" mavzuida davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda 2030 yilga qadar barqaror rivojlanish sohasida kun tartibida belgilangan maqsadlarga erishishda, bilim va tajriba almashishda qulaylik yaratish uchun sheriklik hamda xalqaro munosabatlardan keng va unumli foydalanish usullari ko'rib chiqildi.

Yuqori darajadagi davra suhbatida AKT vazirining birinchi o'rinbosari Oleg Pekos ishtirok etdi va O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonidagi islohotlar, shuningdek, sun'iy intellekt va elektron boshqaruv tizimidagi yutuqlar haqida ma'lumotlar berdi.

– Bugun biz Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kunini nishonlash maqsadida Toshkentda yig'ilidik, – deydi UNESCO bosh direktori yordamchisi, kommunikatsiya va

axborot masalalari bo'yicha sektori rahbari Taufik Jelasi. – O'zbekiston hukumati tomonidan yuksak darajada tashkil etilgan anjumanda qatnashayotganimizdan juda mamnunmiz. Aslida tadbir COVID-19 pandemiyasi tufayli qoldirilgandi. Nihoyat, bu amalga oshmoqda. Konferentsiya ishtirokchilari va xalqaro ekspertlarimiz butun dunyodan Toshkentga sun'iy intellekt, elektron boshqaruv va axborot erkinligi bo'yicha tajribalari bilan o'rtoqlashish uchun kelishdi. Shu bilan birga, inson huquqlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan bunday fundamental mavzu bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun fuqarolarning axborot erkinligini qo'llab-quvvatlash, so'z erkinligini ta'minlash, axborot, haqiqatan ham, ijtimoiy manfaat bo'lishini ko'zda tutish muhimdir.

Xalqaro tadbir bir nechta shobani o'z ichiga olgan bo'lib, ularda axborot olish erkinligi sohasidagi

eng dolzarb mavzular muhokama qilindi. Jumladan:

– Axborotdan erkin foydalanishning inklyuziv yondashuvida elektron boshqaruv va sun'iy intellektning roli;

– Maqsadlar shaffofligi: raqamli texnologiyalar davrida ishtirok etish va hisobdorlikni qanday ta'minlash mumkin?

– Axborot olish to'g'risidagi qonun va uni amalga oshirish sohasidagi muvaffaqiyatlar va hokazo yo'nalishlarda mahalliy va xorijiy mutaxassislar o'zaro fikr va tajriba almashishdi.

Xalqaro konferentsiya 29 sentabr kuni ham o'zi ishini davom ettirdi va BMTga a'zo davlatlarning axborot olishdagi asosiy huquqlarni tan olish va hurmat qilish majburiyatlarini belgilashda mezon bo'luvchi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mahfuza RO'YIDDINOVA

Hamkorlik

O'zbekiston madaniy boyliklari raqamlashtiriladi

Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni munosabati bilan O'zbekiston va YUNESKO hamkorligida gibrid formatda tashkil etilgan "Sun'iy intellekt, elektron boshqaruv va axborot erkinligi" mavzusida xalqaro konferentsiya doirasida UNESCO bosh direktori yordamchisi, kommunikatsiya va axborot masalalari bo'yicha sektori rahbari Taufik Jelasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

AKT vazirining birinchi o'rinbosari Oleg Pekos boshchiligidagi soha mas'ullari ishtirok etgan ushbu uchrashuvda Taufik Jelasi YUNESKO tomonidan mamlakatlar hukumatlariga me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalari erkinligi va ularni rivojlantirish, raqamli innovatsiyalarni joriy qilish hamda jahon ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlarni raqamlashtirish bo'yicha bir qator ishlar va rejalar mavjud ekanligini ma'lum qildi.

O'z navbatida, Oleg Pekos YUNESKO tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholadi va birgalikda sun'iy intellekt va davlat tashkilotlarida



ma'lumotlarni raqamlashtirish kabi yo'nalishlarda vazirlik doirasida hamkorlik qilishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Tomonlar YUNESKoning "Memory of the world" loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasining madaniy boyliklari, tarixiy qo'lyozmalari hamda badiiy adabiyotlar va boshqa yirik ahamiyatga ega madaniy boyliklarni raqamlashtirish yuzasidan kelishib olishdi.

Raqamli ko'prik

Digital Bridge
Forum
ASTANA 2022

O'zbekiston delegatsiyasi forumda qator IT-echimlari va startaplari bilan qatnashdi



Forumning ilk kuni-da "Digital Uzbekistan" taqdimoti bilan ishtirok etgan O'zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov mamlakatimizning axborot texnologiyalari imkoniyatlarini batafsil yoritib, barcha ishtirokchilarni O'zbekistonda 24-27-oktabr kunlari o'tkaziladigan ICT Week Uzbekistan tadbirlariga taklif etdi.

Digital Bridge 2022 xalqaro IT-forumi kun tartibida Markaziy Osiyo davlatlari va Turkiy

davlatlar tashkilotining AKT vazirlari va xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan raqamli texnologiyalarni megapolislarda rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari global strategiyasini kengaytirish, raqamli hukumat barqarorli-

gi, global o'zgarishlar davrida raqamli barqarorlikka erishish yo'llari, davlat va biznesni raqamli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Veb3.0 ekotizimi va blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish davrida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, internetda bolalar xavfsizligini ta'minlash, sun'iy intellektni rivojlantirish kabi bir qator dolzarb masalalarga e'tibor qaratildi.

O'z navbatida, mazkur tadbir doirasida Markaziy Osiyoning IT xizmatlarini xorijga eksport qilish salohiyati va unga to'siq bo'layotgan omillar yuzasidan fikr va mulohazalar almashildi.

Ko'rgazmadagi O'zbekiston IT-Parki stendida mamlakatimiz kompaniyalari tomonidan IT-echimlar va yangi startaplar o'z hamkorlik imkoniyatlarini namoyish etishdi.

Ushbu forumda ishtirok etgan Qozog'iston prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayeva O'zbekiston delegatsiyasi rahbari Sherzod Shermatov mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari haqida axborot berdi.



Bagdat MUSIN,

Qozog'iston Respublikasi raqamli rivojlanish, innovatsiya va aerokosmik sanoati vaziri:

– Ushbu Digital Bridge – Raqamli ko'prik forumi o'z ko'lami bilan ajralib turdi va Qozog'istondagi eng yirik IT-tadbirga aylana oldi. Ishonchim komilki, Forum mintaqada IT-texnologiyalar rivojiga yangicha sur'at bag'ishlaydi, ushbu tadbirda ishtirok etgan mamlakatlar startaplari uchun yangi ufqlar va imkoniyatlar ochadi. IT sohasidagi rahbarlar bilan birgalikda biz texnologik sohaning eng dolzarb masalalarini ko'tardik va innovatsion yechimlarni birgalikda muhokama qildik. Digital Bridge allaqachon raqamli g'oyalarni ilgari surish bilan shug'ullanuvchi barchani birlashtirgan raqamli ko'prikkaga aylandi.

Digital Bridge 2022 forumida besh mingdan ortiq mehmonlar, 300dan ortiq IT-kompaniyalar, butun dunyodan 200ta ma'ruzachilar, 70ta investorlar qatnashdi. Uning dasturiga IT-startaplar xiyoboni va turli mamlakatlarining texnoparklari ko'rgazmasi kabi keng ko'lamli tadbirlar kiritildi. Shuningdek, IT maktablari IT ish yarmarkasi, Astana Hub Battle musobaqasi, VR, GameDev platformalari, startaplar uchun TikTok oflayn-maydonchasi ko'rgazmalari tashkil etildi. Yirik biznes dasturlari 45 panel sessiyalaridan o'rin oldi. Ularda texnologik kompaniyalarning xalqaro va mahalliy mutaxassislari IT dunyosining eng dolzarb mavzularini muhokama qildilar, IT eksporti va inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi va bu boradagi eng yaxshi jahon amaliyotlari bilan o'rtoqlashdilar.

Startaplar xiyobonida 100dan ortiq loyihalar ishtirok etdi. Bu startapchilarga o'z loyihalari to'g'risida ko'proq ma'lumot berish va investorlarni jalb etish uchun noyob imkoniyat bo'ldi. Shuningdek, forum maydonchasida an'anaviy texnologik startaplar musobaqasi Astana Hub Battle ham bo'lib o'tdi. Eng yaxshi startaplar munosib rag'batlantirildi: 1-o'rin – o'z IT mahsulotini ishlab chiqish uchun 10000 AQSh dollari, 2-o'rin – 5000 va 3-o'rin – 3000 AQSh dollari.

Forum ishtirokchilari tarkibi uni o'tkazishning butun tarixidagi eng yorqin vakillaridan iborat bo'ldi. Digital Bridge fikr yetakchilari o'zgarishlar sharoitida yangi texnologiyalarni rivojlantirishni muhokama qilishlari mumkin bo'lgan samarali muloqot maydonchasiga aylanganligi jahon IT hamjamiyatining forumga bo'lgan qiziqishini tasdiqlab berdi.



Milliy webinar

Ulug' yo'l sohibi

O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining "Kompyuter tizimlari" kafedrasida mudiri texnika fanlari nomzodi, dotsent Qosim BEKMURATOV haqida hikoya qilishni lozim topdik.

Qosim aka 46 yillik mehnat stajiga ega. 1976-yilda Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi "Nurli quyosh" sovxozida chilangarlik kasbidan ish boshlagan. 1977-1982-yillarda Samarqand davlat universitetida talabalikning oltin davrini o'tkazgan qahramonimiz 1988-yilgacha ushbu universitetning "Matematik logika va programmalashtirish" kafedrasida assistenti vazifasida faoliyat ko'rsatdi.

1988-1992-yillarda Ukraina Fanlar akademiyasi Kibernetika institutida aspiranturada tahsil oldi. Texnika fanlari bo'yicha nomzodlik himoyasidan so'ng 2005-yilga qadar o'zi ishlagan kafedra dotsenti va ilmiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari lavozimlarida ishlagan.

2005-yili Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali tashkil etilgach, Qosim Bekmuratovga "Umumkasbiy fanlar" kafedrasida mudirligi ishonib topshirildi. 2011-2019-yillarda o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, 2019-yildan boshlab esa "Kompyuter tizimlari" kafedrasida mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Qosim aka yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, o'quv-uslubiy laboratoriyalarni tashkil qilish va ularni uslubiy ishlanmalar bilan boyitish, talabalarining viloyat, shahar, filial miqyosida o'tkaziladigan ijtimoiy-ma'rifiy tadbirlarini tayyorlash va tashkillashtirish yo'lida samarali mehnat qilib kelayotgan yetuk mutaxassis, faol tashkilotchi rahbar sifatida tanilgan.

Domla filialda ilmiy sohada timsollarni tanib olishning matematik modellari, algoritmlar va dasturlarini yaratish muammolari, o'quv sohada informatika va kompyuterga oid fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha izlanishlar olib bormoqda. U kishining diskret matematika, sun'iy intellekt, timsollarni tanib olish, sun'iy intellekt va neyron tarmoqlari, mashinali o'qitishga kirish va ekspert tizimlar fanlaridan o'tadigan darslarga talabalarning qiziqishi juda baland. Uning rahbarligida bajarilgan diskret matematika fanidan amaliy ishlarni bajarish uchun virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt fanidan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun multimediale elektron o'quv qo'llanma, timsollarni tanib olish fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun virtual laboratoriyalar, mashinali o'qitishga kirish fanidan multimediale elektron o'quv qo'llanma kabi bitiruv-malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalari natijalari filial o'quv jarayoniga tatbiq etilgan va talabalar dars mashg'ulotlarida bu



ishlardan foydalanmoqda. Uning ilmiy rahbarligida bir nafar mustaqil tadqiqotchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Q. Bekmuratov tomonidan 200dan ortiq ilmiy va uslubiy qo'llanmalar chop etilgan. Jumladan, xalqaro va respublika ilmiy jurnallarda 33ta maqola, to'rtta o'quv qo'llanma, 38ta uslubiy qo'llanma, 23ta elektron qo'llanma, EHM uchun dasturni rasmiy ro'yxatdan o'tkazganligi haqida 16ta patentlik guvohnomasi, ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyotga tatbiq etganligi uchun uchta joriy etilganlik dalolatnomasi olingan. Shuningdek, 25ta xalqaro, 40ta respublika, 23ta universitet miqyosida o'tkazilgan ilmiy va uslubiy konferensiyalarda ma'ruzalari bilan qatnashgan. Oxirgi uch yilda 32ta ilmiy-uslubiy maqolalari (shundan uchtasi Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda) chop etilgan. U, shuningdek, "MS Word", "MS Excel", "Sun'iy intellekt" va "Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlari" nomli o'quv qo'llanmalari hamda "Diskret matematika", "Intellektual tizimlar", "Timsollarni tanuvchi tizimlar" nomli uslubiy qo'llanmalar muallifidir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining 2012-2014-yillar uchun e'lon qilingan ilmiy loyihalar tanlovining hamda 2015-2017-yillar uchun e'lon qilingan "Qo'lyozma matnlarni (harf, raqam, yordamchi belgilar, so'zlar) va shaxs imzolarini anglovchi, ularning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlovchi algoritmlar va dasturiy vositalarni yaratish" grantlari g'olibi hisoblanadi.

Domlanning bevosita rahbarligi ostida izlanish olib borgan yoshlarning yutuqlari ham quvonarli. Xususan, 2001-yilda Samarqand

davlat universiteti 3-bosqich talabasi Dilorom Haydarova va 2004-yilda 3-bosqich talabasi Umida Murtozoyeva Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi, 2006-yili TATU Samarqand filialida 3-bosqich talabasi Shohista Abdulimova, 2010-yili 3-bosqich talabasi Diana Kadirova "Radiotexnika, elektronika va aloqa ilmiy-texnika jamiyati" stipendiyasi, 2010-yili 3-bosqich talabasi Ahror Mustafoyev "Menejer" loyihasi, 2018-yilda 4-bosqich talabasi Nodir Fayzimizuratov Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyasi g'oliblari bo'lgan.

Ayni damda qahramonimiz filialda Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv va ilmiy ishlarni tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash bilan birgalikda talabalar bilimni baholashda yangi reyting tizimini joriy etish, ishchi o'quv rejalarini tuzishda ham faol ishtirok etib, o'zining bu sohada yuqori malakali mutaxassis ekanligini namoyish qilib kelmoqda. U 2020-yildan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining Informatika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanlari bo'yicha Ilmiy-texnik kengash a'zosi, "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish" ilmiy-tadqiqot institutida malakaviy imtihon komissiyasi a'zosisdir.

Qosim aka Bekmuratov nafaqat ilmiy sohada, balki axloqiy jihatdan va ijtimoiy faoliyat sohasida ham namunali pedagog. U filialning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlashi, masalalar yechimiga ijodiy va tahliliy yondashishi, kamtarligi va kirishimligi bilan doimo hamksblariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Abdug'afur HOTAMOV,
TATU Samarqand
filiali matbuot kotibi

RAQAMLI HUKUMAT, TRANSFORMATSIYA

Joriy yilning 26-28-sentabr kunlari "Raqamli hukumat va transformatsiya" mavzusida O'zbekiston milliy webinarini onlayn tarzda bo'lib o'tdi.

Mazkur webinar Osiyo va Tinch okeani mintaqasining AKT va rivojlanish o'quv markazi (APCICT/ESCAP), O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Uning ochilish marosimida Osiyo va Tinch okeani mintaqasining AKT va rivojlanish o'quv markazi (APCICT/ESCAP) direktori Kiyong Ko, Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi direktori Aziz Muxitdinov so'zga chiqdi.


- Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish milliy iqtisodiyotning o'sishida, sanoatni modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi, ijtimoiy soha hamda davlat xizmatlarini ko'rsatishda juda katta ahamiyatga ega, - dedi jumladan Aziz Muxitdinov. - Albatta, oldimda turgan vazifalarni amalga oshirishda biz doim ilg'or xalqaro tajribaga tayanamiz. Bu borada Osiyo va Tinch okeani AKT o'quv markazi bilan hamkorlik qilishdan mamnunmiz. Bugungi milliy webinar, shubhasiz, mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda davlat boshqaruvi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadbir davlat idoralarning raqamli tashabbuslarini rivojlantirish va amalga oshirishga mas'ul bo'lgan boshqarva va bo'limlarining rahbar va xodimlari uchun mo'ljallangan.

Webinarida O'zbekistonda davlat boshqaruvi sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Unda raqamli hukumat strategiyasi va siyosati uchun foydali deb hisoblangan asosiy tamoyillar yoritiladi.

Ishtirokchilar ushbu webinar orqali raqamli texnologiyalarning davlat va xususiy sohalarda tobora ortib borayotgani va bu texnologiyalarning joriy etilishi boshqaruvga qanday ta'sir ko'rsatishi va boshqalar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi.

В УЗБЕКИСТАНЕ БОЛЕЕ 10 МЛН. ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ FACEBOOK И INSTAGRAM



Делегация управляющей Facebook и Instagram компании Meta посетила Ташкент с деловым визитом.

Управляющий директор Meta по Китаю, Монголии и Центральной Азии Джордж Чен, а также менеджер Facebook по работе с правительством Аврора Ли провели переговоры с руководством технопарка. Гости отметили недооценённый мировой IT-сферой потенциал региона.

Отмечалась и широкая пользовательская база Facebook и Instagram в Узбекистане — более 10 млн. человек. Чен рассказал о разработках Meta в сфере метавселенной, а также сопутствующих направлениях

дополненной и виртуальной реальности (AR и VR).

Meta и IT-Park обсудили возможности сотрудничества в образовании, включая преподавание курсов американской компании по AR и VR в IT-Park University — созданном в этом году цифровом университете.

Кроме того, поднимался вопрос включения курсов Meta в программу компенсации затрат на международные IT-сертификаты. С июля их получатели в возрасте 14–30 лет могут через ЕПИГУ возместить до 50% стоимости зарубежных курсов.

Также участники договорились рассмотреть возможности открытия представительства Meta в Узбекистане.

ПОДАТЬ ЗАЯВКУ НА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КРЕДИТ ТЕПЕРЬ МОЖНО ЧЕРЕЗ САЙТ



Теперь интересующиеся займами для оплаты обучения могут узнать актуальные подробности и подать заявку через специальную платформу. Об этом сообщила пресс-служба Центробанка.

Сайт доступен по адресу talim-krediti.uz. На нём учащиеся на платно-контрактной основе студенты и другие лица могут ознакомиться с параметрами льготного кредитования и законодательными актами, устанавливающими их.

На сайте собраны быстрые ссылки на страницы каждого из 12 коммерческих банков, предоставляющих кредиты на образование.

Там можно будет узнать конкретные условия по кредитам и всю дополнительную информацию.


Через Ta'lim Krediti можно подать заявку на получение кредита. Процесс состоит из трёх шагов:

- 1) личные данные заёмщика,
- 2) адрес,
- 3) сведения о сумме займа и условиях его выдачи.

Обращение будет рассмотрено выбранным банком в течение 5 рабочих дней. Заявитель может проверить его статус в специальном разделе сайта.

После одобрения заявки заёмщик должен будет представить в банк требуемые документы. Деньги будут перечислены на счёт вуза в тот же день, отмечается в сообщении.

В ТАШКЕНТЕ ПРОЙДЕТ ЭКСПЕРТНЫЙ ФОРУМ ПО ЦИФРОВИЗАЦИИ КРУПНОГО БИЗНЕСА



Цифровые платформы все больше набирают популярность. Почему так важно сейчас обратить на них внимание и попасть в первую волну — на этот и другие вопросы ответят пять спикеров-экспертов по цифровой трансформации на форуме «Цифровые бизнес-модели: инструменты, лучшие практики, монетизация» 6 октября в Ташкенте. Участие бесплатное.

Кому будет интересно?

Мероприятие подготовлено для информационного обогащения в сфере диджитал-тенденций крупного бизнеса среди представителей банков, ритейл-сетей, топ-менеджмента, IT-директоров, руководителей и всех, кто заинтересован в развитии бизнеса в современных условиях.

Ознакомиться с полной программой форума и найти информацию о спикерах можно на официальном сайте (it-business.events) мероприятия.

ЧТО ТАКОЕ ИНФОРМАТИЗАЦИЯ?

Вопрос: что такое информатизация?

Ответ: согласно статье 3 Закона Республики Узбекистан «Об информатизации», информатизация — организационный социально-экономический и научно-технический процесс создания условий для удовлетворения потребностей юридических и физических лиц в информации с использованием информационных ресурсов, информационных технологий и информационных систем.

В ИНДИИ ЗАПУСКАЮТ 5G УЖЕ В НАЧАЛЕ ОКТЯБРЯ



В Сети появилось свежее объявление, сделанное индийскими властями. По их словам, уже 1 октября в стране будут запущены мобильные сети пятого поколения.

Что интересно, сделано это было через Twitter, благодаря чему само заявление успело сохраниться у пользователей. И это важно, так как официальный аккаунт правительства Индии в итоге удалил исходный твит.

Сообщается, что запуск 5G-сетей в стране может самую малость задержаться — буквально на пару-тройку дней. Связано это с тем, что Индии всё ещё могут быть некоторые проблемы с услугами 5G.

Ожидается, что подключение нового поколения сетей в стране пройдёт плавно, от города к городу. В первую партию войдут Бангалор, Дели, Калькутту, Мумбаи и т.д. — всего 13 городов.

Напомним, что более ранние замеры скорости 5G в Индии показали, что максимальная скорость передачи данных достигает 3,7 Гбит/с.

HUAWEI ПРЕДСТАВИЛА ТОНКИЙ СУБФЛАГМАНСКИЙ СМАРТФОН СО 108-МП КАМЕРОЙ



В Южной Африке официально представили новый смартфон Huawei Nova 10 SE. Он получил тройную камеру с главным датчиком на 108 Мп, а также поддержку 66-Вт зарядки.


Huawei Nova 10 SE оснащён 6,67-дюймовым OLED-дисплеем с разрешением Full HD+ и частотой обновления 90 Гц. На передней панели находится 16-мегапиксельная камера для селфи. На задней панели расположены основная камера на 108 Мп, сверхширокий объектив на 8 Мп и макрокамера на 2 Мп. Устройство работает на ОС Android 12 и пользовательском интерфейсе Magic. На устройстве нет поддержки приложений и сервисов Google.

Пока неясно, на каком процессоре работает Nova 10 SE. Смартфон питает аккумулятор ёмкостью 4500 мАч. Телефон имеет толщину всего 7,39 мм и весит около 184 граммов.



“UMRA QO‘LLANMASI” MOBIL ILOVASI ISHGA TUSHDI

УМРАЧИЛАРГА АЖОЙИБ ҚУЛАЙЛИК:
МОБИЛ ИЛОВА ИШГА ТУШДИ!



“Umra qo‘llanmasi” mobil ilovasi ishga tushirilgani haqida O‘zbekiston musulmonlari idorasi rasmiy veb-portalida – Muslim.uz xabar berdi.

Mobil ilovada Umra safari davomida lozim bo‘ladigan zarur barcha ma‘lumotlar tafsilotlarigacha qisqa, sodda va lo‘nda bayon etilgan. “Umra qo‘llanmasi”da “Umra duolari”, “Safarga tayyorgarlik” va “Islom tarixiga oid joylar” nomli bo‘limlari mavjud. Ilovada muborak safarda muhim bo‘lgan duolar ovozli shaklda batafsil bayon etilgan.

“Umra qo‘llanmasi”da Umra ibodatiga oid barcha masalalar keltirilgan: “umra” so‘zining ma‘nosidan to‘uning amallari-yu sunnatlarigacha. Shu bilan birga, ziyorat qilish odoblari, muborak shahar va masjidlarining fazilatlarini, muborak safar tartib-qoidalarini kabi bir qator ruhnalarda zarur ma‘lumotlar taqdim etilgan.

Mobil ilovani Google Play va App Store orqali yuklab olish mumkin.

YOUTUBE KO‘RINISHINI O‘ZGARTIRDI

YouTube so‘nggi haftalar davomida qayta dizayn qilingan bosh sahifasini sinovdan o‘tkazdi. 9to5google videoxostingning mobil va desktop talqinlarida bosh sahifalar qanday bo‘lishini ko‘rsatdi.

Turli mavzulardagi karusel burchaklari o‘tmashgan to‘rtburchaklar ko‘rinishiga keltirilgan. Mitti rolklar burchaklari ham bosh sahifada, shuningdek, video sahifasidagi qidiruvda yanada dumaloqlashdi. Layk/dizlayk, “ulashish” va hokazo tugmalar tabletka shaklini olgan. Desktop (kompyuterlar) uchun YouTube qora tema yanada “qoraygan”.



YouTube bosh sahifasi redizayni testlari davom etmoqda, shu bois hozircha uni ko‘rish imkoniyati katta emas.

QOZOG‘ISTON INTERNETIGA DDOS- HUJUM UYUSHTIRILDI

25-sentabr kuni “Davlat texnik xizmati” (DTX) internetning Qozog‘iston segmentiga keng ko‘lamli DDoS-hujum


uyushtirilganini xabar berdi. Zakon.kz yozishicha, bu aloqa operatorlarining magistral kanallariga yuklanish oshishiga olib keladi.

Ulanishda muammolar toppress.kz, newtimes.kz, sn.kz yangiliklar saytlarida kuzatilgan.

DTX kiberhujumlar bir nechta xorijiy mamlakatdan uyushtirilganini aniqlagan.

24-sentabr kuni “Qozog‘telekom” keng ko‘lamli kiberhujumlar bo‘lganini ma‘lum qilgandi.

SMARTFONDA QANCHA OLTIN BOR?



Xitoyning Weibo ijtimoiy tarmog‘i foydalanuvchisi smartfonda qancha oltin borligini bilmog‘chi bo‘ldi. Buning uchun eski smartfonlarning 210 dona bosma platasini sotib oldi. Bir dona plataning narxi — 1,5 dollar, hammasini qo‘shganda — 315 dollar.

Xitoylik platalardan oltinni ajratish uchun turli usullarni qo‘lladi: tozalash, eritish, filtrlash va hokazo. Shuncha mehnat va zahmatdan so‘ng 0,41 gramm oltin yig‘di, xolos.

Bu miqdordagi oltinning mahalliy bozordagi narxi — 30 dollar. “Oltin

izlovchi” foyda uyoqda tursin, o‘n baravar xarajatga tushdi. Asboblari va ashyolarni qanchaga sotib olganini qo‘shganimiz yo‘q.

“Oltin ko‘milish” uchun juda ko‘p eski smartfon kerak. Masalan, million dona mobil telefondan 34 kilogramm oltin olsa bo‘ladi.

Darvoqe, Tokio-2020 olimpiadasi-ning medallari eskirgan elektrotexnika qurilmalari, asosan, mobil telefonlarni qayta ishlab ajratib olingan qimmatbaho metallardan yasalgan edi.

AQLI SOAT BOLG‘A BILAN URGANDA HAM SINMADI, AMMO...



TechRax kanali blogeri Apple Watch Ultra ustida sinov o‘tkazdi. U soatga bir qancha jismoniy zarbar berib, mustahkamligini tekshirib ko‘rdi.

Bu kompaniyaning eng baquvvat soati deganlaricha bor ekan. Soat sapfir oyna bilan himoyalangan bo‘lib, bir metr balandlikdan ulotirilganida butun qoldi.

Shuningdek, gadjet bir necha bor bolg‘a bilan urib ko‘rildi. Bunda oyna sinmadi, darz ham ketmadi. Ammo biroz o‘tib soat o‘chib qoldi — ichki komponentlari zararlangan bo‘lsa kerak.

Xalqaro hayot

PUTIN SNOUDENGA ROSSIYA FUQAROLIGINI BERDI



Rossiya prezidenti Vladimir Putin amerikalik Edvard Snoudeniga Rossiya fuqaroligini berdi. Tegishli farmon huquqiy axborot internet-portalida e‘lon qilindi.

Edvard Snowden — AQSh maxsus xizmatlari davlat rahbarlari va internet foydalanuvchilarini kuzatib borishi haqidagi maxfiy ma‘lumotlarni 2013-yilda e‘lon qilib tanilgan shaxs. O‘zi ham AQSh maxsus xizmati (Milliy xavfsizlik agentligi) da ishlagan. Shundan so‘ng u ta‘qibdan qochib avval Gonkongga, keyin Rossiyaga qochgandi. Salkam o‘n yildan buyon Rossiyada yashab kelmoqda.

Ko‘pchilikni qiziqtirayotgan savol: Snouden qisman safarbarlikka chaqiriladimi?

“Yo‘q, chunki u ilgari Rossiya armiyasida xizmat qilmagan”, — deb javob berdi Snoudenning advokati Anatoliy Kucherena.

YEVROPANING ENG YAXSHI AVIAKOMPANIYASI ANIQLANDI



Turkiyaning davlat aviakompaniyasi — Turkish Airlines uchta mukofot, jumladan, “Yev-

ropaning eng yaxshi aviatashuvchisi” sharafiga sazovor bo‘ldi. World Airline Awards mukofotlari topshirilgani haqida bugun, 26-sentabr kuni Hürriyet Daily News xabar berdi.

Turk kompaniyasi “Janubiy Yevropaning eng yaxshi aviakompaniyalari” va “Biznes-klassdagi dunyodagi eng yaxshi o‘vqatlanirish” nominatsiyalarida ham g‘olib bo‘ldi.

World Airline Awards tadbiri Londondagi havo transporti bo‘yicha xalqaro reyting tashkiloti — Skytrax tomonidan o‘tkazildi. Bir necha yo‘nalishlarda g‘oliblar 2021-2022-yillardagi 100dan ortiq millat va 14,3 milliondan ortiq yo‘lovchini qamrab olgan so‘rovnomalarda asosida aniqlandi.

DUNYONING ENG TEZ CHO‘KAYOTGAN SHAHARLARI MA‘LUM BO‘LDI



Bir guruh olimlar o‘tkazgan tadqiqot Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi ayrim shaharlarda, dunyoning boshqa yerlaridagiga nisbatan, sezilmasdan cho‘kish jarayoni ancha tez kechayotganini ko‘rsatdi, deb yozdi Nature.

Mutaxassislar o‘n millionlab odamlar dunyo okeani suv sathi ko‘tarilishi qarshisida o‘z qolishayotganiga e‘tiborni qaratishdi.

Vetnamning 9 mln. kishi yashovchi Hoshimin (kino va adabiyotlarda Saygon nomi ostida mashhur) shahri dunyoning qirg‘oqbo‘yida joylashgan 48ta yirik shahri orasida eng tez cho‘kmoqda. Bu ro‘yxatda Bangladeshning Chittagong port-

shahri ikkinchi o‘rinda joylashdi.

Suv bosish xavfi yuqori yirik shaharlar beshligida keyingi o‘rinlarda: Ahmadobod (Hindiston), Jakarta (Indoneziya poytaxti, bu mamlakat poytaxtni ko‘chirish taraddudida) va Yangon (Myanma poytaxti).

BMTning Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi bayonotiga ko‘ra, 2050-yilga borib sayyoramizning 1 milliard aholisi dunyo okeani sathi ko‘tarilishi oqibatida doimiy suv bosishi xavfi ostida yashaydi.

CHARLZ III SURATI TUSHIRILGAN BANKNOTALAR QACHONDA MUOMALAGA CHIQRILADI?



Buyuk Britaniya qiroli Charlz III portreti tushirilgan yangi banknotalar 2022-yil oxirigacha taqdim etiladi va ular 2024-yilda muomalaga chiqariladi. Bu haqda seshanba kuni Angliya bankining press-revizida ma‘lum qilindi.

“Banknotalarning 2024-yil o‘rtalarida muomalaga kiritilishi kutilmoqda. Janobi Oliylarining portreti to‘rtta polimer banknotlar (£5, £10, £20 va £50)ning barcha mavjud dizaynlarida paydo bo‘ladi”, — deyildi press-revizida.

Qayd etilishicha, qirolicha Yelizaveta II portreti aks ettirilgan hozirgi banknotalar ham qonuniy to‘lov vositasi bo‘lib qolaveradi. Ular eskirgan yoki shikastlangan taqdirdagina muomaladan chiqariladi.

OTMLAR REYTINGINING QATOR KO'RSATKICHLARIDA TATU YUQORI O'RINLARNI EGALLADI

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan 2021-yilda bir nechta mezonlar asosida o'tkazilgan oliy ta'lim muassasalarning reytingi natijalari e'lon qilindi. Unda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining natijalarini ko'rish mumkin.



TATU Scopus bazasiga ko'ra, professor-o'qituvchilarning ilmiy maqolalari soni bo'yicha (313ta) 2-o'rinni, umumiy hisobda esa 5-o'rinni egallagan.

OTM professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari asosida olingan mablag'lari ko'rsatkichi (mlrd. so'm) bo'yicha eng ko'p mablag' ishlab topgan OTMlar top uchtaligidan (3-o'rin) joy olgan.

Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish hamda ilmiy unvonlar olish ko'rsatkichi bo'yicha 4-o'rinni (83ta), nufuzli xorijiy oliygohlarning PhD yoki DcS ilmiy darajasini olgan professor-o'qituvchilar eng ko'p bo'lgan milliy OTMlar top beshligida 3-o'rinni (43ta) egallagan.

Oliy ta'lim muassasalari filiallarining 23talik reytingida TATUning Urganch filiali ikkinchi (56,19), Samarqand filiali uchinchi, Nukus filiali oltinchi, Farg'ona filiali sakkizinchi, Qarshi filiali esa o'n birinchi o'rindan joy olib, TATU salohiyati bo'yicha yetakchi universitetlardan biri ekanligini ko'rsatib turibdi.

Do'stlar davrasida borsiz doimo

Oramizda shunday insonlar bo'lganki, ularning hayoti, qilgan mehnatlari, izlanishlariyu intilishlari ko'pchilik insonlarni yaxshi yo'lga yetaklashga va yorqin hayot sari olg'a boshlashga yordam bergan. Shunday insonlardan biri Toshkent axborot texnologiya universitetida o'z faoliyatini olib borgan fizika-matematika fanlari doktori, professor Xayrulla Qobulovich Aripovdir.

Xayrulla Aripovning o'zi ham shu dargohda tahsil olgan. Oliyohdan keyin dunyo tanigan olimlardan biri – Nobel mukofoti laureati, akademik Jores Ivanovich Alferov ilmiy laboratoriyalarida o'qib-o'rganib, muddatidan oldin nomzodlik dissertatsiyani yoqlagan. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida kafedra assistenti vazifasida ish boshlab, kafedra mudiri, ilmiy-o'quv ishlar bo'yicha birinchi prorektor lavozimlarida ishlagan. U kishi qaysi vazifada faoliyat ko'rsatmasin, har doim katta hurmat va e'tibor qozongan. Yosh avlodga bor bilimlarini o'rgatib, hamkasblariga doimo o'rnak bo'lgan.

Shu o'rinda uzoq yillar avval bo'lib o'tgan bir kichkinagina voqea bilan o'rtoqlashmoqchiman.

1987-yilning bahori edi. Domla Rossiyaning Moskva shahrida malaka oshirish kurslarida o'qir, men esa Moskva elektrotexnika aloqa instituti aspiranturasini tamomlab, nomzodlik dissertatsiyam himoyasi taraddudida yurardim. Ammo oilaviy sharoit tufayli Toshkentga ketishim zarur bo'lib qoldi. Oldimda dissertatsiya avtoreferatini bosmaxonadan olib, yuzta yirik tashkilot va korxonalariga pochta orqali yuborish va o'z vaqtida jo'natilganlik haqidagi hujjatni olishdek yugur-yugurlar turardi. Ana shunday tig'iz vaziyatda ustoz menga darhol yordam qo'lini cho'zgandi: "Siz xavotir olmay bermalol uyga borib kelavering, o'zim hammasini hal qilib, hujjatlashtirib qo'yaman", – degandi o'shanda. Himoyaga qaytib borganimda esa, hamma ishni bekamu ko'st bajarib qo'yg'an ustoz hujjatlarni va qolgan avtoreferatlarni qo'limga topshirdi. Qanday minnatdorchilik bildirishni bilmay turganimda, u kishi aytgan samimiy gaplar hamon qulog'im ostida jaranglaydi: "Insonning yuragi toza bo'lsa, uni do'stlar davrasi qurshab turadi va unga hamisha yelkadosh bo'ladi!"

Professor Xayrulla Qobulovich Toshkent axborot texnologiyalari univesitetining ilmiy salohiyatini oshirishga, yosh olimlar tayyorlashga ham katta



hissa qo'shgan. Ilmiy ishlar prorektori lavozimida ishlagan davrlarida universitet va aloqa sohasi korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik eng yuqori cho'qqilarga chiqqan. Soha korxonalarini bilan foydali bo'lgan xo'jalik shartnomalari tuzilib, ularning buyurtmalari asosida keng ilmiy izlanishlar, loyihalar va tajribaviy asbob-uskunalar

yaratilgan. Shu ilmiy izlanishlar natijasida bir necha yosh olimlarning monografiyalari chop etilgan, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Ba'zi o'quv laboratoriyalari ilmiy izlanishlar olib borishga, o'quv jarayoni sifatini oshirishga xizmat qiluvchi eng so'nggi raqamli o'lchov qurollari bilan jihozlangan. Shuningdek, ustoz o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimida ishlagan paytida o'quv rejalarini yangilashga, dunyodagi yetuk oliygohlarda o'qitilayotgan fanlarni universitetda ham o'qitilishiga zamin hozirlagan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun barcha dekanlar bilan har bir yo'nalishdagi o'quv fanlari tahlil qilib chiqilgan. Xorijdagi bir qator davlatlar, jumladan, Yaponiya, Fransiya, Xitoy, AQSH, Germaniyadagi oliygohlarning shu yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan o'quv dasturlari bilan solishtirilgan. Natijada zamon talabiga javob bermaydigan fanlardan 57tasi o'quv jarayonidan olinib, yangilari bilan almashtirilgan. Univesitetda ko'p yillar davomida o'qitilgan "Injener grafikasi" o'rniga "Kompyuter grafikasi" fani kiritilgan.

Shogirdlari va ta'lim olgan talabalari xotirasida ulug' ustoz siyмосi abadiy yo'ldosh bo'lib qolishiga ishonamiz.

X.SOATOV,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

QUTLOV!

Reklama va e'lonlar

"O'zbektelekom" AK
NAVOIY FILIALI
JAMOASI

Aziz ustoz va murabbiylarimizni
KASB
BAYRAMI
bilan chin qalbdan
tabriklaydi.

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2021-yil 10-dekabrda 188-f-sonli farmoyishiga asosan "Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi" jamoat fondi hisob raqamiga 2022-yil 28-sentabrda "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari parki" MCHJ tomonidan 50 000,0 ming so'm homiylik puli kelib tushdi. Mazkur mablag' "Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi" jamoat fondi hamda Aloqa tarixi muzeyining 2022-yil uchun tasdiqlangan smeta xarajatlari qo'shiladi.

Bo'riboev Davron Borliboy o'g'liga 2015-yili O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.H. Sirojiddinov nomidagi Akademik litsey tomonidan berilgan L 252326 raqamli Diplom yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

QIZALOQ "G'UNCHA", "GULXAN" KABI KO'PLAB NASHRLARNING TA'SIRIDA ULG'AYDI. GAZETA-JURNALLARNI KELITRADIGAN POCHTACHI AYOL KO'ZIGA HAYRATLANARLI DARAJADA YOQIMLI VA OQILA BO'LIB KO'RINARDI. UNING POCHTA QUTISIGA DAVRIY NASHRLARNI TASHLAB KETISHINI INTILIK BILAN KUTAR, ESHIK TIRQSHIDAN QARAB TURAR, AYOL KETISHI BILAN SHOSHILIB CHIQIB, AJIB HID TARATADIGAN BIR QUCHOQ GAZETA-JURNALLARNI UYGA OLIB KIRARDI-DA YUTOQIB MUTOLAAGA KIRISHARDI.



Ustozlik bitmas-tuganmas baxt

Uning sohaga qiziqishi o'shandan boshlangan. Keyinchalik o'sha ayoldan tortinmaydigan, gaplashadigan bo'ldi. Uning ismi-sharifi Gulnora Temurgaliyeva edi. So'ray-so'ray pochta sohasi haqida to'laroq bilib oldi. Ota-onasi rahmatli Baxtiyor va Anoraxon Tillaboyevlar qizginani orzu-rejalarini qo'llab-quvvatlab, kitoblar va gazeta-jurnallar aqlu shu'urni peshlovchi, haqiqatni bildiruvchi, jamiyatni poklovchi ne'mat, deb xursand bo'lishgan edi. Buxgalterlikka o'qigach, pochtaga ish so'rab bordi. Suhbatdan o'tgach, aloqa bo'limida ish boshladi. Birinchi ustoz adashi Nasiba opa Mamadaliyevadan kasb alifbosini o'rgandi. Gulnora Raykenova obuna masalalaridagi bor bilim va tajribalardan saboq berdi. No'mon Karimov, joylari jannatda bo'lsin, bebaho inson va ajoyib rahbarning har bir so'zi, o'g'itlarini pochta qoidalari kabi qulog'iga quyub oldi. Lyudmila Kushtapovaning umri ziyoda bo'lsin, bu ustozdan ham har qancha minnatdor bo'lsa arziydi. Uning insoniylik va asl pochtachilik fazilatlarini o'zida mujassam etishga intildi. Intilganga esa tole yor bo'laverar ekan. Qayerga qo'yishsa, o'sha jab-

hani puxta egallashga intildi. U ishlamagan jabha qolmadi, hisob. Ko'p o'tmay o'zi ham viloyatda ustoz Nasibaxon Tojiboyeva bo'lib tanildi. Soha uchun ancha og'ir kelgan yillarda ham sinovlardan yorug' yuz bilan o'tdi. Boshqa sohalarga ishga taklif etishdi. Lekin uni ming jilo bilan jimirlagan maoshlar maftun etmadi. Axir padari buzrukvori "Daraxt bir joyda ko'karadi" deb aytib ketgan. Bu vasiyat bo'lib qolgan da'vatni unutib bo'larmi? Yo'q, aslo!

Nasibaxon ishga kelganda sal shamolga ham uchib ketadigandek juda nozik, navnihol qiz edi. Tez orada jamoada o'rmini topdi. Kasbni mukammal egalladi, - deydi Farg'ona shahar pochta aloqasi bog'lamasi hisobiy tahlil va prognozlash bo'limi boshlig'i Obidjon Umarov. - Joriy yilning to'qqiz oylik natijalariga ko'ra, 138 mln. 500 ming sof daromad olishga erishgan bo'lsak, shuning 120 mln. so'mi obunadan. Bunda esa obuna ishlari ham yuklatilgan operator Nasibaxon Tojiboyevaning hissasi katta. Yosh qizlarimiz undan ibrat oladilar. Pochta xodimasi madaniyati va ma'naviyati, qiyofasi borasida ham unga ergashadilar.

Zamona zayli. Uzoq yillar obuna bo'limi boshlig'i bo'lgan Nasibaxon endi operator. Ammo obuna ishlar-

ini talabdagidek olib borayotganidan tashqari ba'zan saralovchilarga ham yordamlashib yuboradi. "AiF", 20 va "Trud 7" ning o'zidagina 20 qopdan 40 qop kelgan vaqtlarda ham bo'lim boshlig'iman demay saralovchilarga qarashib yuboradigan, umumishi uchun jon kuydirgan ham shu serg'ayrat Nasibaxon bo'lgan. U mehribon, oqila ona sifatida ham hurmat-e'tibor qozongan. Uch qizni oq yuvib-oq tarab katta qilib solihalar qatoriga qo'shgan. Marziyaxon qizi, ayniqsa, o'ziga tortdi. Kitoblarga o'ch. U arab tilini o'rgandi. Endi ona qiziga shogird. Shahloxon onasining kasbini olgan. Pochta uning uchun ham muqaddas va aziz korxon. Odiraxon esa ayollarga nafasot va chiroy tuhfa etuvchi hunarini tanlagan.

Hayotning bir qanoti - salomatlik, bir qanoti - harakat deganlar. Shu ma'noda olganda, pochta degan manzil butun dunyosiga aylangan Nasibaxon uchun hayotning bir qanoti salomatlik, bir qanoti pochta!

Rizqim pochtaga sochilgan ekan, - deydi uning o'zi. - Shu rizq bilan qizlarni katta qildim. Yaxshi farzand bo'lishdi. Obro'li xonadonlarga uzatdim. Bir so'z bilan aytganda, menga faqat rahmat olib kelishmoqda. Uch nafar o'g'il nevaram bor. Shularning o'zi

menga bitmas-tuganmas baxt, mukofot. Pochta uchun salkam chorak asrlik mehnatlarimga mingdan ming roziman. Biz Farg'ona shaharlik pochtachilar uchun ayni kunlar boshqacha shukuhli. Sababi 50 yil oldin ishga tushirilgan, yarim asrlik g'ubordan qoraygan oynavand binomiz ilk marta rekonstruksiya qilinmoqda, ya'ni qayta qurilmoqda. Zamonga mos ravishda tayyorlangan loyihaga qarab bir quvonsak, shu kunlarga ustozlarimiz ham yetib kelmaganidan taassuflandik.

Yuzlab shogirdlarni yetishtirgan Nasibaxonni O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami bilan qutlab, oilasiga to'kinchilik farovonlik, ishlariga rivoj tiladik. U ham o'z navbatida, yurtimizdagi barcha ustozlarni bayram bilan muborakbod etdi: Barchalariga sog'-omonlik, uzoq umr, baxtu omad tilayman, bolalari, nevara-chevaralari va shogirdlarining kamolini ko'rishsin. Yangi O'zbekistonimizga ko'z tegmasin, tinchligimiz barqaror bo'lsin!

Biz ham tilaklaringizni ijobat aylasin, Nasibaxon, deymiz.

Hafiza SALYAHOVA,
"Xabar"ning Farg'ona viloyatidagi muxbiri

Xabar

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

Bosh muharrir:

Abdug'ani ABDURAHMONOV

Tahrir Hay'ati:

Sherzod SHERMATOV (Hay'at raisi), Nazirjon HASANOV,
Kommuna IRISBEKOVA, Alisher FAYZULLAYEV,
Lutfullo TURSUNOV (Bosh muharrir o'rinbosari),
Usmonjon YO'LDOSHEV (Mas'ul kotib).

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egalriga qaytarilmaydi.

Muallifning fikrlari tahririyat fikridan farqlanishi mumkin.
Nashrimizdan ko'chirib bosilganda "Xabar"dan olinganligi ko'rsatilishi shart

Gazeta sahifalarini tayyorlashda internet materiallaridan ham foydalanildi.
Bahosi kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100000 Toshkent shahri,
Amir Temur 1-tor ko'chasi, 2-uy
(Mo'ljal Oloy bozori).
Telefonlar: 71-234-18-59, 71-234-18-31.
Faks: 71-234-17-91. E-mail: info@xabar.uz

Obuna indeksi — 228.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terildi va sahifalandi.

Dizayner: Asliddin BO'RIYEV.
Navbatchi: Usmonjon YO'LDOSHEV.



ISSN 2010-6424

Bosishga topshirildi — 17 °°
Bosishga topshirish vaqti — 24 °°

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 0016 raqami bilan 2013-yil 23-iyulda ro'yxatga olingan.

Gazeta haftaning juma kuni chiqadi

Gazeta "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Buyuk Taron ko'chasi 41-uy.

I-959 sonli buyurtma. Ofset usulida bosildi. Qog'oz bichimi A-3, hajmi 2 bosma taqoq. Adadi: 2989

Viloyat muxbirlari:

Andijonda (74) 226-47-80

Buxoroda (99)854-7305

Jizzaxda (94) 199-95-64

Namanganda (91) 353-71-25

Navoiyda (79) 225-91-10

Nukusda 554-35-45

Samarqandda (91)557-84-44

Termizda (99)508-30-52

Toshkentda 234-18-59

Urganchda (97) 211-65-05

Farg'onada (73) 244-18-05

Qarshida (93)931-08-99